

O'SMIRLARNI SOG'LOM E'TIQOD RUHIDA TARBİYALASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Bekkiyeva Nargiza Rajabboyevna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM o'qituvchisi +998996679021

nargizarajabboyevna@gmail.com

Annotatsiya

Maqola matnida e'tiqod so'zining mazmun mohiyati, o'smirlarni sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalashning bugungi kundagi muammolari, e'tiqodning o'smir hayotidagi ahamiyati yoritilgan. O'smirlarni sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalashning psixologik xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'z: e'tiqod, ishonch, shaxs, huquq, konstitutsiya, o'smir, ratsional, irratsional, qadriyat, o'dob-axloq.

Inson yashar ekan, o'z hayot faoliyati yo'lida shaxsiy e'tiqodlari asosida ish ko'radi. Biror bir ishni boshlashdan avval uni o'ylaydi, fikrlaydi va amaliyotda uni qo'llaydi. O'smirlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, ular ruhiyatida sog'lom e'tiqodni shakllantirish bugungi kundagi psixologiya fani oldida turgan dolzarb masalalardan biridir. O'z hayot tajribasini ongli boshqarish, turli rejalar tuzish, hoxish istaklariga va dunyoqarashiga mos harakat qilish, komillikka intilish insoniyatgagina xos xususiyatdir. Inson yashar ekan, doimo uning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari bo'ladi. Uning ma'naviy asosini esa e'tiqod tashkil qiladi. Bosh qomusimiz bo'lgan konstitutsiyamizning ikkinchi bo'lim V bob 19-moddasida ham inson huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etilgan va kafolatlangan, inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'lishi, barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida teng [5] ekanliklari belgilangan.

E'tiqod – kishining muayyan hodisa, uning xossa va xususiyatlari haqqoniy ekanligiga ishonchidir. Ishonch e'tiqodning asosini tashkil etadi. Biroq har qanday ishonch ham e'tiqodga aylanavermaydi. Garchi ishonch va e'tiqod bir-biriga juda yaqin va o'xshash bo'lsa-da, biroq ular o'rtasida farq ham mavjud. Odatda, e'tiqod deganda diniy e'tiqod tushuniladi. Aslida, e'tiqod diniy ham, dunyoviy ham bo'lishi mumkin. Diniy e'tiqod g'ayritabiiy kuchlar va hodisalarga ishonish, sig'inish orqali shakllanadi. E'tiqodning dunyoviy ko'rinishi esa insonni o'rab turuvchi obyektiv olamdagi narsa va hodisalarni hissiy tajriba va ilmiy bilish asosida shakllanadi.[2] Keng ma'noda e'tiqod inson faoliyati uchun ma'naviy asos,

yo'l-yo'riq bo'lib, aql va iroda vositasida anglangan bilim, g'oya va shu asosda shakllanadigan maqsadlar majmuini hamda ularning to'g'riligiga ishonch bilan bog'liq bo'lgan psixologik holatni ifodalaydi. Olimlarning fikriga ko'ra, ratsional ishonch shaxsning faol harakatiga, yaratuvchiligiga tayanadi. Uning negizida turgan g'oya, ta'limot, ideal to'g'ri yoki xato, hayotiy yoki havoyi, hayoliy bo'lishi mumkin. Lekin shaxs unga sidqidildan ixlos bilan intiladi, erishish yo'llarini izlaydi, ijod qiladi. Natijada u o'sha maqsadga yetolmasa ham, ma'lum samaraga erishadi, faoliyati izsiz ketmaydi. Irratsional ishonch shaxsning ijodiy passivligiga, farmonbardorligiga, mutaassibligiga tayanadi. Bunday shaxsning tafakkuri mustaqil emas, o'zgalar, obro'li kishilar fikriga qaram bo'ladi. Ular boshqalarning irodasiga ko'r-ko'rona bo'ysunadilar, to'g'ri, yoki noto'g'riligini, ijobiy yoki salbiy oqibatlariga olib kelishini o'ylab o'tirmaydi. Ratsional ishonch o'z kuzatishlariga, mushoxada va xulosalariga asoslangan tafakkur mustaqilligini, ya'ni e'tiqod erkinligini bildiradi, degan edi XX asrning mashhur allomalaridan biri E.Fromm. Ishonchning, binobarin, e'tiqodning ratsionallik va irratsionallik mezonini taraqqiyot zaruratidan izlash kerak. G'oyalar, me'yorlar, ta'limotlar, umuman, ilm tarixiy taraqqiyot talablariga, inson va jamiyat yuksalishiga qanchalik mos kelsa, e'tiqod, ishonch, shuncha ratsionallik kasb etadi, amaliy samarasi ijobiy bo'ladi. Agar tarixiy zaruratga mos kelmaydigan, hayotdan ortda qolgan ilmga qat'iy ishonilsa, ixlos qilinsa, bunday e'tiqod ijobiy samara bermaydi, hatto jamiyatda, odamlar, o'rtasida turli ziddiyatlarni keltirib chiqaradi, tinch-totuv hayotga, milliy jipslikka putur yetkazadi.[6]

Ilmiy tadqiqotlar va hayot tajribalari ayrim axloqiy tushunchalarni noto'g'ri tushinib, shaxsning ba'zi fazilatlarini noto'g'ri baholab, mustaqillikka intiladigan o'z irodasini namoyish qilishga harakat qiladigan o'smirlar o'zlarida salbiy sifatlarni o'stirishga urinishni ko'rsatdi. Hatto ular o'zlarida shakllangan ijobiy hislatlarni yo'qotishga ham harakat qiladilar. O'qituvchi va ota-onalarning asosiy vazifasi ularning noto'g'ri qarashlariga zarba berish va o'smirlarning adashishlariga yo'l qo'ymaslikdir.[1]

Ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy taraqqiyot inson qadri, uning ehtiyojlari bilan bog'liq masalalarni globallashtirib yubordi. O'smir yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida kamolga yetkazish, sog'lom fikrlashga o'rgatish, dunyoqarashi va tafakkurini kasbiy qiziqishlari bilan uyg'unlashtirish asosiy vazifamizdir. Har bir o'smirni sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalash ijobiy samarali ta'sirga egadir. Sog'lom e'tiqod bag'rida shakllangan, ma'naviy-axloqiy xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan va bu ma'naviy axloqiy qadriyatlardan oqilona foydalana olgan har bir shaxs jamiyatda har qanday vayronkor g'oyalar ortidan ko'r-ko'rona ergashmaydi aksincha unga qarshi ma'rifat bilan javob qaytaradi.

Xulosa. Farzand dunyoga kelar ekan, dastlab u oilada ota-onasi va yaqinlari bag'rida voyaga yetadi. Shunday ekan, o'smir yoshlarni sog'lom e'tiqodli qilib tarbiyalashda oilaning, ota-onaning va albatta ijtimoiy muhitning ham o'rnini beqiyosdir. Lekin bola xulq-atvoridagi individual psixologik xususiyatlarni asosiy qismi oiladagi muhit ta'siri ostida shakllanadi. Demak, bolaning xulqida ijobiy xususiyatlarni shakllanishida ota-onaning roli alohida ahamiyatga ega. Qachonki, ota-ona bolaning individual psixologik xususiyatlarini inobatga olib, xulqidagi o'zgarishlarga oqilona yondashib unga to'g'ri yo'l ko'rsata olsa, shundagina o'smir:

- atrofidagi voqea hodisalarga mustaqil munosabat bildira oladi;
- o'z xatti-harakatlariga javobgarlik hissigiga ma'suliyat bilan yondashadi;
- har bir ishda sabr-toqatli bo'lishga o'rganadi;
- voqea hodisaga odillik bilan yondashadi;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bekkiyeva, N. (2024). o'smirlarda soxta diniy tushunchalarning shakllanishida ijtimoiy omillarning psixologik o'rnini. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10775578>
2. A.V.Narbekov. "Dinshunoslik asoslari" *O'quv qo'llanma*. Toshkent-2012
3. Беккиева Наргиза. (2023). Ўспиринларда ҳуқуқий маданият шаклланишида ҳуқуқий онгинг аҳамияти. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7833086>
4. Саъдуллаев, а. а. ў. (2023). Ўсмир спортчиларда иродавий сифатларни шакллантириш аспекти. scholar, 1(8), 112–117. retrieved from <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/2706>
5. <https://lex.uz/docs/-6445145>
6. <https://religions.uz/news/detail>
7. Fayziyeva, N. (2024). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(2), 149-155. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9805>
8. Rahmanqulov, S. (2024). O'SMIR YOSHDAGI O'QUVCHILARDA IJTIMOIIY DEVIANT XULQ ATVORINI O'RGANISHDA PROYEKTIV METODIKALARNING O'RNINI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9850>
9. RAHMANQULOV, S. (2024). YOSHLARDA FAOL HAYOTIY POZITSIYANI SHAKLLANTIRISH MUAMMOSI. News of UzMU journal, 1(1.2. 1), 181-184.

10. Abduhamidovich, R. S. (2023). O'ZBEKISTONDA MILLIY TA'LIM TIZIMINI CHET EL TA'LIM TIZIMI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI. Conferencea, 97-101.

11. Abduhamidovich, R. S. (2023). AKADEMIK MOBILLIK–BOLONIYA JARAYONLARINING MUHIM SHARTI SIFATIDA. Conferencea, 126-131.

